

## FARG'ONA VILOYATIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK MUVOZANATNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI

**Abdullayeva Umidaxon G'ulomiddinovna**

*Farg'ona davlat universiteti, Kimyo kafedrası o'qıtuvchısı*

Tabiatni muhofaza qilish nihoyatda katta va murakkab ishdir. Bu soxadagi chora-tadbirlarni to'la amalga oshirish uchun keng jamoatchilikni albatta jalb qilish kerak. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy zaxiralardan foydalanish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur dasturga asosan, aholini toza suv bilan ta'minlash ko'rsatgichi keying 5 yilning o'zida taxminan 1,5 barobar ortdi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishni nazarda tutib, oilada, barcha ta'lim dargohlarida, mahallalarda va jamoat joylarida ekologik tarbiyani amalga oshirish, tabiatga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish, undagi mavjud tiriklikni avaylab-asrash, Vatan ravnaqi, el obodligi, yurt farovonligi yo'lida fidoiylik bilan mexnat qilish zarurdir.

Respublikamizda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish korxonalarini keng rivojlanayotgan davrda, Oliy o'quv yurtlarida talabalarni ekologik ruxda tarbiyalash, olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga qaratilgan ko'pgina ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish zarurat bo'lsa, ikkinchi tomondan zamon talabi xamdir. Oliygoxlarda turli mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar ertaga xalq xo'jaligining turli soxalarida faoliyat yuritadilar va albatta saloxiyatlaridan kelib chiqib o'z faoliyatlarida tabiatga turli ta'sir ko'rsatadilar. Shu jixatdan barcha talabalar ekologik ruxda ta'lim va tarbiya olgan bo'lishlari, millatimiz urf-odatlarini bilishi, qadrlashi, xayotda unga amal qilishi lozim.

Ekologik tarbiyani amalga oshirishda xar bir dars mavzusiga mos ravishda ekologik tushunchalarga izox berib boriladi. Talabalarga ekologik ta'lim- tarbiya berish ular ongiga to'g'ri ishonchli tarzda yetkaza olish ularni tabiatga bo'lgan munosabatlarini ongli ravishda amalga oshirishga o'rgatishda kimyo fani o'qıtuvchilari muxim rol o'ynaydi.

Kimyo mutaxassiligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga ko'proq ishlab chiqarishga oid kimyoviy masalalar yechirish, ularda kimyoviy ishlab chiqarish to'g'risida, ayniqsa xom-ashyodan tejab tergab to'liq foydalanish ishlab chiqarish korxonalarini tashqi muxitga ta'siri kimyoviy texnologik jarayonlar apparatlarni shu unumdorligi to'g'risida tushunchalar xosil qilishga yordam beradi.



Kimyo darolarida ishlab chiqarishga oid masalalarni yechish ularni nazariy bilimlarini amalda qo'llashga o'rgatadi, ularga xayotda xamda mexnatda zarur bo'ladigan amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Agar bundan 25-30 yil oldin atrof muxit ifloslanishi bo'yicha ayrim xodislargina qayd etilgan bo'lsa, xozirga kelib u tobora ommaviy tus olmoqda. Fikrlarimizni yanada aniqlash maqsadida dalillarga murojat qilaylik. Keyingi 35 yil ichida rivojlangan mamlakatlarda uglerod ikki oksidining (CO) chiqarilishi, bir kishi xisobiga 2,4% ga qarab o'sib bormoqda Fors ko'rfazidagi 1991-yil fevral-iyun oylaridagi janglarda atmosferaga 3000 tonna vannadiy, 800 tonna nikel va boshqa konserogen moddalar chiqarildi. Mavjud kasallikning 3/4 qismi asosan nobop ekologik muxit tufaylidir.

XX asr boshlaridanoq yer sharidagi tabiiy sharoitga inson tomonidan kiritilgan o'zgarishlar masshtabi nafaqat global, balki sayyoraviy ekanligi V.I.Vernadskiy tomonidan aytib o'tilgan: "Insoniyat, butun bir qudratli geologik kuchdir. U o'z maqsadlari va qiziqishlarini amalga oshirish uchun butun fikri va mehnatini erkin

fikrlovchi shaxs sifatida biosferani qayta qurish muammosini hal qilishga sarflaydi", degan fikri chin haqiqat edi. (Biroq «biosferani qayta qurish» hozirgi kunda faqat salbiy jarayon sifatida qaraladi. Insoniyatning xo'jalik faoliyati tabiat uchun halokatlidir. Shunday qilib, sayyora qobig'ida yashil maydon kamayib bormoqda, suv va tuproq kislotalandi, atrof-muhit sanoat va qishloq xo'jalik chiqindilari bilan ifloslandi, ulkan miqdorda organik yonilg'ilarning yondirish tufayli atmosferada karbonat angidrid konsentrasiyasi ortib, yer sirtidagi issiqlik

balansi buzilmoqda, o'simlik va hayvonlarning turli turlari va soni kamayib bormoqda, insonlarning sog'lig'ini yo'qotmoqda. Insoniyat tarixi davomida uning tabiatga munosabati, odamlarning faoliyat masshtabi va yo'nalishi o'zgarib bordi. Tabiiy moddalardan foydalanish talabi to'g'ridan-to'g'ri «o'zlashtirish» bilan almashdi, uning resurslarini ekspluatatsiya qilish tezlashib bordi. Zamonaviy bosqichda tabiat ustidan hukmronlik g'oyasidan tabiat-jamiyat munosabatlari "sheriklik" munosabatlariga o'tilmoqda. Ekologik krizisning oldini olish faqat inson ongli ravishda yirik masshtabda ekologik o'z-o'zini boshqarish sharoitidagina amalga oshirish mumkin. Ko'pgina antropogen omillarga baho berish, avvalo, inson o'ziga va atrof-muhitdagi jarayonlar asosida kimyoviy reaksiyalar yotishini anglab etishi zarur. Shu sababli aynan KHK ta'limida ekologik bilimlarning kimyoviy aspekti muhum o'rin tutishi lozim. An'anaviy kimyo kursini o'rganish biologik tizimlarning degenerasiyasi oqibatida atrof-muhitning sifat jihatidan o'zgarish sabablarini tushunib yetish imkonini beradi. Bizning sayyoramiz atomlari tarixini o'rganish



asosida ikki turli jarayonni - biogeokimyoviy elementlar migratsiyasini va texnogenini, shuningdek, o'z navbatida biosferaga tushayotgan antropogen yukning darajasini baholashni aniqlash imkonini beradi. Moddalarning tabiatda aylanish muammosining hal qilinishi kimyo sanoatini tabiatga kirishining nibatan tabiiy va xavfsiz yo'li hisoblanadi. Kimyoni atmosferadagi, suv havzalaridagi, tuproq va odam organizmidagi, tabiiy tizimdagi u yoki bu modda sifatida o'zgarishi sifatida tushuntirish tabiatni himoyalash asoslari haqidagi mumkin. Kimyoviy bilimlar bilimlarning ajralmas qismi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni o'zgartirishga ehtiyotkorona munasabatda bo'lish Inson dunyoqarashini shakllanishida kimyoning o'rni ham muhim hisoblanadi. Eng avvalo, kimyo o'lik dunyoni tiriklik bilan bog'lovchi bo'g'in sifatida aks etadi. A.P.Vinogradov (1935-y.) aytganidek, organizmlarning kimyoviy tarkibi tashqi muhit kimyoviy tarkibining aksidir. U aniqlaganidek, u yoki bu kimyoviy elementning miqdoriy tarkibi shu elementlarning nisbiy atom massalariga bog'liq ravishda teskari proporsionaligiga bog'liqligidan iborat. shakllantirishda, rivojlanishning tadqiqot usullarida ko'rinadi. Kimyo Kimyoning ulkan roli tabiat haqidagi fundamental bilimlarni yangi ekologik xavfsiz moddalar va materiallar olish yo'lini ko'rsatadi. Keyingi vaqtda jamiyatda kimyo (fan va sanoati) ekologik krizis vujudga kelishining birlamchi sababchilari sifatida qarashlar yuzaga kelgan. Taxmin qilinishicha, Yerdagi barcha kulfatlar uni kimyolashtirishga nihoyatda ko'p urinish va kimyo sanoati rivojlanishining tabiiy muhitni sog'lomlashtirishga salbiy ta'siri tufayli yuzaga keladi. Bunday kimyoga

nisbatan fan sifatida konstruktiv bo'lmagan yondashuv uni o'rganishga bo'lgan qiziqishning so'nishiga olib keladi. Bundan tashqari, o'quvchi barcha baxtsizliklar sababchisi o'z qilmishlaridan emas, yuzaga kelgan vaziyatning mohiyatini tahlil qilmasdan nimadan yoki boshqa kimdandir ko'radi. Avvalo, barcha tanqidiy holatlarga o'z faoliyati nuqtary- nazaridan qaramoq lozim O'rta ta'limda kimyoviy bilim berish ekologik ta'lim asoslariga tayanishi zarur. Bu vazifani ekologik ta'limga yo'nalirilgan kimyo kursi orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi. Kursning asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- tabiat o'zining tabiiy rivojlanishida dinamik muvozanatda bo'ladi; insoniyatning bevosita ta'siri natijasida atrof-muhit tarkibiy qismlarining kimyoviy tarkibi o'zgarishga uchraydi va tabiiy muvozanat buziladi;

- atrof-muhit manbalari holatini va tayyor mahsulotlar sifatini kimyoviy-analitik usullar yordamida doimiy nazoratdan o'tkazib borish nazoratdagi obyektlarda mavjud zararli moddalar haqida ma'lumot olishga, shu asosida ularni tozalash va bu obyektlarni himoyalash usullarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

